

“Eng yaxshi konstruksiya” tanlovini o‘tkazish to‘g‘risidagi NIZOM

1. UMUMIY QOIDALAR

Ushbu loyiha yosh muhandislarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lashga qaratilgan. Tanlovning asosiy falsafasi — "Minimal resurs bilan maksimal chidamlilik".

Maqsad: O‘zbekiston yoshlari orasida muhandislik sohasini eng jozibador yo‘nalishga aylantirish.

Vazifa: Talabalar tomonidan yaratilgan konstruksiyalarni halokatli yuklamalar ostida sinash (Crash-test).

Tanlov ikki bosqichdan iborat bo‘ladi:

- 1) tanlovning birinchi bosqichi oliy ta‘lim muassasalarida tashkillashtiriladi;
- 2) respublika bosqichi tanlovning ikkinchi bosqichida o‘tkaziladi.

Oliy ta‘lim muassasasi bosqichida tegishli mutaxassislar tarkibidan komissiya tashkil etilib, belgilangan real vaqtda qatnashchilar tomonidan yaratilgan konstruksiyalarni halokatli yuklamalar ostida sinashni nazorat qilishadi va baholaydi. G‘olib deb topilgan ishtirokchilarni aniqlab 1,2 o‘rinni olgan qatnashchilarni tanlovning respublika bosqichida qatnashishi uchun tavsiya etiladi.

Tanlovning respublika bosqichida tashkil etilgan komissiya belgilangan real vaqtda komandalar tomonidan yaratilgan konstruksiyalarni halokatli yuklamalar ostida sinashni nazorat qilishadi va baholaydi. 1,2,3 o‘rinni olgan qatnashchilarni g‘olib deb topadi va 3 ta komandani moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirishga tavsiya qiladi.

Tashkiliy ishchi guruha tanlov g‘oliblarini moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirishni, tanlov o‘tishini va natijalarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish ishlarini amalga oshiradi.

2. TANLOV YO‘NALISHLARI

2.1. “ENG YAXSHI KONSTRUKSIY” (*Maksimal yuk ko‘tarish*)

Ishtirokchilar yengil yog‘och reykalardan ko‘prik yoki ferma yasashadi. Ushbu konstruksiya o‘z vaznidan bir necha yuz barobar og‘irroq yukni ko‘tarishi kerak.

Asosiy qoida: Konstruksiya uzunligi 40 smdan, eni 9smdan kam bo‘lmasligi kerak.

Sinov: Markaziy qismga statik yuk (gantellar yoki qum to‘ldirilgan chelak) osiladi.

2.2. “QURILISH MUHANDISLIGI” (Zilzilabardoshlik tanlovi)

Talabalar seysmik faol zonalarda chidamli bo‘lgan osmono‘par bino maketini yaratadilar.

Asosiy qoida: Bino o‘lchamlari: balandligi kamida 90 sm, eni va uzunligi 30x30 sm bo‘lishi shart.

Sinov: Konstruksiya maxsus tebranish stoli (Shake Table)ga o‘rnatiladi va 9 ballik zilzila imitatsiyasi qilinadi.

3. Moddiy-texnik bazasi (1 ta jamoa uchun smeta)

“QURILISH MUHANDISLIGI” (Zilzilabardoshlik tanlovi)

№	Nomi	Rasmi	O'lchami	Soni	Narxi (1 birlikda)
1	Yog‘och tayoqchalar		2000x 10x10 mm.	30 dona	6,000 so'm (o'rtacha)
2	Yelim (to'plam)		Standart o'lchamli	2 to'plam	35,000 so'm
8	Fanera Asos (Base Plate)		30x30 sm	1 dona	50,000 so'm

“ENG YAXSHI KONSTRUKSIYA” (Maksimal yuk ko‘tarish)

№	Nomi	Ko‘rinishi	O'lchami	Soni	Narxi (1 birlikda)
1	Standart ko‘rinishdagi muzqaymoq cho‘pchalari		11,4x9,6x2 mm	140 dona	
2	Yelim (to'plam)		Standart o'lchamli	1 to'plam, 10 dona yelim	

4. Tanlovning oliy ta'lim muassasasidagi bosqichini tashkil etish tartibi (shu banda kiritib ketiladi universitetlar ro'yxati)

1. Tanlovning oliy ta'lim muassasasidagi bosqichi fevral-mart oyilarida o'tkaziladi.

2. Tanlovning oliy ta'lim muassasasi bosqichida o'tkazilganligi to'g'risidagi yig'ilish bayonnomalari tanlov komissiyasi a'zolari imzosi bilan tasdiqlanadi va belgilangan muddatda Respublika tashkiliy ishchi guruhiga taqdim etiladi.

3. Tanlov komissiyasi oliy ta'lim muassasasining ma'muriy-boshqaruv xodimlari, mutaxassis-o'qituvchilar, hamkor tashkilotlardan jalb etilgan mutaxassislar, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

4. Tanlov komissiyasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- tanlovning oliy ta'lim muassasasidagi bosqichi axborot ta'minotini tashkil qiladi;

- tanlov ishtirokchilarining topshiriqni real vaqtda bajarishini va yaratgan maketini sinovdan o'tkazishni nazorat qiladi hamda sifatini baholaydi.

5. Tanlovda oliy ta'lim muassasasida uzluksiz (akademik ta'tilsiz) kunduzgi ta'lim shaklida o'qib kelayotgan 1, 2, 3, 4-bosqich talabalari hamda magistrantlar ishtirok etishi mumkin.

6. Tanlov bo'yicha 1-2-3-o'rinlarni egallagan g'olib va sovrindorlar oliy ta'lim muassasasining faxriy yorlig'i bilan mukofotlanadi hamda tegishli ravishda moddiy rag'batlantiriladi.

7. Moddiy rag'batlantirish uchun pul mablag'lari oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i asosida oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ajratiladi.

5. Tanlovning respublika bosqichini tashkil etish tartibi

1. Tanlovning respublika bosqichi Tashkiliy ishchi guruhi tomonidan har yili aprel oyida o'tkaziladi.

2. Quyidagilar Tashkiliy ishchi guruhining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- tanlovni o'tkazish muddatlarini belgilash va uni yuqori darajada o'tkazish;

- tanlov bo'yicha alohida tanlov komissiyasi (ekspertlar guruhi) tarkibini shakllantirish;

- tanlov bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.

2 Tashkiliy ishchi guruhi qoidaga ko'ra, rais, rais o'rinbosari, Tashkiliy ishchi guruh kotibi va a'zolaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Tashkiliy ishchi guruh raisi, rais o'rinbosari va kotibi uning a'zolari orasidan saylanadi.

3. Tashkiliy ishchi guruh raisi:

- Tashkiliy ishchi guruhi majlisi kun tartibini belgilaydi va uni o‘tkazadi;
 - Tashkiliy ishchi guruhi qarorlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;
 - Tashkiliy ishchi guruhi a’zolariga yuklangan vazifalarni bajarish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiradi.
3. Tashkiliy ishchi guruhi a’zolari quyidagi huquqlarga ega:
- Tashkiliy ishchi guruhi majlislarida ko‘rib chiqilayotgan masalalarni muhokama qilishda va hal etishda qatnashish;
4. Tanlov bo‘yicha 1-2-3-o‘rinlarni egallagan g‘olib va sovrindorlar oliy ta’lim muassasasining faxriy yorlig‘i bilan mukofotlanadi hamda tegishli ravishda 1-o‘rin sohibi Noutbuk, 2-o‘rin sohibi 3D printer va 3-o‘rin sohibi Televizor bilan rag‘batlantiriladi.
5. Tanlovning respublika bosqichi g‘oliblarni moddiy rag‘batlantirish O‘zbekiston Respubikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug‘i asosida oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiradi.
6. G‘oliblarni mukofatlash tadbiri tanlovning Tashkiliy ishchi guruhi qarori asosida belgilangan muddatda tantanali ravishda o‘tkaziladi.

**Ushbu nizom musobaqa boshlanishiga kamida 30 kun qolganida o‘zgartirilishi mumkin. O‘z o‘rnida yangilangan nizom barcha ro‘yhatdan o‘tgan ishtirokchilarga taqdim etiladi.*

"ENG YAXSHI KO'PRIK KONSTRUKTSIYASI" (MAKSIMAL YUK KO'TARISH) TANLOVI REGLAMENTI

1. Tanlovning maqsadi

Mazkur musobaqaning maqsadi – ta'lim olayotgan mutaxassisligi bo'yicha nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiq eta oladigan, mustaqil fikrlaydigan, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan kadrlarni tayyorlash, talabalarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, yoshlarni qurilish muhandisligi sohasiga qiziqtirish, hamda qurilish konstruksiyalarining mustahkamlik nazariyasini bo'yicha chuqur bilimga ega talabalarni rag'batlantirishdir. Ishtirokchilarning sun'iy inshootlar (ko'priklar)ning yuk ko'taruvchi asosini tahlil qilish, real vaqt rejimida model yaratish hamda ijodiy va texnik ko'nikmalarini baholash.

2. Ishtirokchilar yoshi


17–25 yosh

3. Maketga qo'yiladigan talablar


- Maket to'liq tashkilotchilar tomonidan taqdim etilgan detallar yordamida yasalgan bo'lishi shart.
- Ko'prik o'lchami – bo'yi 60 sm, eni 9 smdan balandligi 15 sm qisqa bo'lmasligi lozim.
- Konstruksiyada karkas va to'suvchi elementlar albatta ishlangan bo'lishi kerak.
- Sun'iy inshoot mavzuga mos holda aniq konstruktiv yechimga ega bo'lishi talab etiladi.
- Tashkilotchilar tomonidan tavsiya etilgan o'lcham va konstruktiv tizimdan Keskin farq qilmasligi zarur.
- Ko'prik konstruksiyasini yasash davomiyligi, musobaqa boshlanishida tashkilotchilar tomonidan belgilangan vaqtdan oshib ketmasligi kerak.
- Ko'prik konstruksiyasining tavsiyaviy ko'rinishi va o'lchamlari quyidagi rasmda ko'rsatilganidek bo'lishi kerak:



Ko'prik fermasining tavsiyaviy sexmasi M1:1





Ko'prik fermasining gorizontaal bog'lovchilari M1:1



MUHANDISLARI

KELAJAK

MUHANDISLARI



4. Musobaqa maydoni

Maydon 2 qism asosida tashkil qilinadi:

-Ko'prik maketini yasash uchun ajratiladigan maydon (har bir ishtirokchi uchun eng kamida 4 kvadrat metr);

-Ko'prik konstruksiyasini yuk ko'tarish qobiliyatini sinash maydoni.

Ishtirokchi yaratgan ko'prik modeli belgilangan joyda ketma – ket bir xil yuk qo'yish orqali aniqlanadi.

5. Foydalaniladigan materiallar

№	Nomi	Ko'rinishi	O'lchami	Soni
1	Standart ko'rinishdagi muzqaymoq cho'pchalari		11,4x9,6x2 mm	140 dona
2	Yelim (Termoyelim pistoleti)		Standart o'lchamli	1 to'plam, 10 dona yelim

3	Maket pichog'i (Skalpel)		Standart o'lchamli	1 dona
4	Metall chizg'ich		30 sm	1 dona

6. Baholash mezonlari

No	Mezonlar	Ball
1	Konstruksiyaning chidamliligi (musobaqa davomida eng ko'p yuk ko'targan maketga - 40 ball, keyingi o'rinlarga eng ko'piga nisbatan foiz hisobida baholanadi)	0-40
2	Konstruksiyaning to'g'ri tanlanganligi	0-20
3	Maketning vazniga nisbatan yuk ko'tarish darajasi (musobaqa davomida vazniga nisbatan eng ko'p yuk ko'targan maketga - 30 ball, keyingi o'rinlarga eng ko'piga nisbatan foiz hisobida baholanadi)	0-30
4	Maketning tugallanganligi	0-10
	Jami:	100

7. G'oliblarni aniqlash

Musobaqa ishtirokchilarini baholash uchun xolisonalik va shaffoflik asosida ko'rik-tanlovda ishtirok etmaydigan tegishli soha mutaxassislaridan 3 yoki 5 nafar tarkibda Komissiya tayinlanadi. G'oliblar Nizomning 6-bandida keltirilgan mos baholash me'zonlari asosida aniqlanadi. Eng yuqori ball to'plagan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

Ballar teng bo'lsa, vazifani eng tez bajargan maketchi ustunlikka ega bo'ladi.